

Ta'limda ma'naviy qadriyatlarning roli
Aitekova Aytgu'l Sarsenbaevna
I.Yusupov nomidagi ijod maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviyat tushunchasining ilmiy va pedagogik ahamiyat tahlil qilingan. Bundan tashqari, ma'naviy qadriyatlarning bolalar tarbiyasidagi rolga ahamiyat qaratilgan.

Kalt so'zlar: Ma'naviyat, texnik taraqqiyot, umuminsoniy qadriyatlar, shaxs va jamiyat.

Аннотация: В данной статье анализируется научно-педагогическое значение понятия духовности. Кроме того, акцент сделан на роли духовных ценностей в воспитании детей.

Ключевые слова: духовность, технический прогресс, общечеловеческие ценности, личность и общество.

Abstract: This article analyzes the scientific and pedagogical significance of the concept of spirituality. In addition, attention is paid to the role of spiritual values in raising children.

Keywords: Spirituality, technical progress, universal human values, personality and society.

Fan va texnikaning taraqqiy topishi cheksiz yutuqlar bilan bir qatorda insoniyat oldiga favqulodda muammolarni ko'ndalang qo'ydi. Binobarin, hozirgi davrda yuz berayotgan globallashuv jarayoni shular jumlasidan bo'lib, u izchil taraqqiyot va jamiyat hayotining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi jarayoni jadallashganligini dalolatlaydi.

Dunyodagi barcha yosh mustaqil davlatlar qatori O'zbekiston Respublikasi, shu jumladan, Qoraqalpog'iston ham istiqlolning dastlabki pallasidan globallashuv ta'siriga tushdi. Mazkur tizimda jamiyat hayotida ma'naviyat va ma'rifatga bo'lgan ehtiyoj teranlashdi. To'g'rirog'i, bu jarayonda "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baqquvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir"[1]. Binobarin, jahon mintaqalarida ushbu global muammolar oqibatlarini bartaraf etish vazifasi jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish zaruratlariga tutashib ketdi.

Ta'kidlash kerakki, milliy ma'naviyat, umuminsoniy qadriyatlar qamrovi nihoyatda keng. Bu tushunchalar necha asrlar davomida bosqichma-bosqich

shakllana bordi va o'z mohiyatiga ega bo'ldi. Shaxs va jamiyat ma'naviyati hamisha ilm ahli e'tiborini jalb etib kelgan. Shuning bilan birga, fanda ma'naviyat tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Xususan, falsafa ma'naviyatni "inson ruhiy va aqliy olamining majmui"[2] tarzida izohlasa, ikkinchi bir ta'rifda "Ma'naviyat (arabcha "ma'naviyat" ma'nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui"[3] deya izohlanadi. Faylasuf V. Oripovning fikricha, "Botinan ma'naviyat shaxsning ichki, axloqiy olamiga mansub bo'lib, insonning ruhiy holati, axloqiy tavsifi, dunyoqarashi, turmush tarzi, ma'rifati, madaniyatiga doir fazilatlarini ifodasidir. Insonning boshqa tirik mavjudotlardan farqi ham uning ma'naviyatida, o'zligini anglashidadir. Shu nuqtayi nazardan, ma'naviyat har bir jamiyatning axloqiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy, huquqiy salohiyatlarini belgilovchi mezon sifatida ham ifodalanadi"[4].

G'arb faylasuflari ham ma'naviyat haqida so'z yuritganda dastavval insonning shaxsiy axloq sifatiga e'tibor qaratadilar. Masalan, N.A.Berdyayev ma'naviyatni "insondagi eng yuqori sifat, qadriyat, muvaffaqiyat"[5] ekanligini ta'kidlaydi. Faylasuf olimi N.M.Musayeva "odamlar o'rtasidagi barcha munosabatlarning negizini tashkil qilgan ma'naviyat axloq va odobga tayanadi. Shu sababli axloq va odob ma'naviyatning bir qismigina emas, balki uning negizidir. Insonga xos bo'lgan ma'naviy fazilatlarining barcha tizimi axloq va odob mezonlariga tayangandagina haqiqiy ahamiyat kasb etadi"[6] deya e'tirof etadi.

Ayrim mutaxassislar ma'naviyatni madaniyatning ajralmas qismi sifatida baholaydilar. Jumladan, olimi O.Musurmonova ma'naviy madaniyatning uzviy qismiga: aql, axloq, siyosat, iqtisodiyot, huquq, ekologiya, estetika, badiiy va diniy madaniyatlar kiradi [7] deya qayd qilsa, Faylasuf N.Yunusova esa ma'naviy madaniyatni qatlamlarga ajratib ko'rsatishga harakat qilgan: "Ma'naviy madaniyatning o'zak qismi uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida tashkil topgan bo'lib, u murakkab, ichki ziddiyatlarga to'la, rang-barang to'qnashuvlar, munozara va bahslar jarayonida shakllangani bois xalq xotirasida muhrlanib qolgan. Shu bilan birga, ma'naviy madaniyatda davr talablariga moslashib, undagi ijobiy yangiliklarni qabul qilib boradigan "qatlam" ham mavjudligi asoslangan. Ushbu

qatlarga: xalq og‘zaki ijodi, xalq amaliy san‘ati, bayramlari va marosimlari, xalq turmush tarzi, muomala madaniyati, estetik madaniyat, xalq ta‘lim-tarbiyasi, ilmiy-ma‘rifiy izlanishlari kiradi”[8].

Zikr etilgan olimlarning mushohadalari shaxs ma‘naviyatiga aloqador qismlarini qamrab olgan. Ularni umumlashtirgan holda ta‘kidlash lozimki, shaxs ma‘naviyati millat, davlat va jamiyat ma‘naviyatining davomi sanaladi. Ruhiy kamolot jamiyatda mavjud bo‘lgan ko‘p qirrali munasabatlar, shart-sharoit va imkoniyatlar negizida shakllanadi. Millat, davlat va jamiyatning madaniy-ma‘naviy taraqqiyoti esa shaxs ma‘naviy kamolotini belgilaydi. Demak, davlatimizda komil inson shaxsiyatini tarbiyalash negizida olib borilayotgan siyosat o‘z mevasini berishi muqarrar. Negaki, har bir shaxsning barkamollikka intilishi davlat ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlari takomili, jamiyatda barqarorlikning muayyanlashuviga olib keladi. Shuning bilan birga milliy ma‘naviyat uzluksiz harakatdagi hodisa bo‘lib, millat tafakkuri, an‘ana va qadriyatlari mahsuli sifatida doimo yangilanib turadi. Jamiyatning ma‘naviy salohiyati esa xalq madaniy-ma‘naviy merosi hamda umuminsoniy qadriyatlar tizimiga bevosita va bilvosita bog‘liq holda taraqqiy topadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z ma‘naviy mustaqilligini dunyoda ijtimoiy, siyosiy va ma‘naviy o‘zgarishlar kechayotgan murakkab sharoitda qo‘lga kiritdi. Bu paytda G‘arbda ommaviy madaniyat aqidasi avj olayotgan, milliy qadriyatlarga munosabat keskinlashuvi yuz berayotgan edi. Ikkinchi tarafdin, sobiq Ittifoq davrida xalqimizning ezgu qadriyatlari, an‘analari kommunistik g‘oya soyasida qolib ketgandi. Ayniqsa, G‘arbda avj olgan mash‘um yoppasiga standartlashuv tizimining joriy topishi, milliy qadriyatlarni siqib chiqarishga moyillikning ortishi harakatlari soxta mafkuraning yosh davlatlar uchun katta xavf tug‘dirishi tabiiy edi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma‘naviyat, 2009. – B. 19.
2. Ibrohimov A. , Sultonov X. , Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. T.: O‘zbekiston. 1996. – B. 111.
3. Mustaqillik izohli ilmiy – ommabop lug‘at. Muallif: M. Abdullayev, M. Abdullayeva, G. Abdurazzaqova va boshq. T.: Sharq. 1998 – B. 114.

4. Oripov V. G. Osnovi filosofii. // Kurs leksiy. M.: Islom nuri. 1999. №10.
5. Berdyayev N. A. Ekzistensialnaya dialektika bojestvennogo i chelovecheskogo (Parij, 1952). Mir filosofii. Ch. 2. Chelovek. Obshestvo. Kultura. - M.:1991. – S. 46.
6. Musayeva N. M. Insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda hadislarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil) Filol. fan. nomz.... dis. avtoref. – T.: O'zMU. 2001. – B. 13
7. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T.: O'qituvchi. 1996. – B. 12.
8. Yunusova N. Sh. Ma'naviy madaniyat tizimining falsafiy tahlili. Falsafa. fan. nomz.... dis. avtoref. – T.: O'zMU, 2006. – B. 10.